ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

QURAQOVA SHOXIDA DAGAR QIZI

O‘ZBEK LISONIY HAMJAMIYATIDA PIKTOGRAFIK YOZUVNING KOGNITIV-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 811.512.133'37:003.628

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Philological Sciences

Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Quraqova Shoxida Dagar qizi
O'zbek lisoniy hamjamiyatida piktografik yozuvning kognitiv-semantik xususiyatlari 3

Kurakova Shokhida Dagar kizi
Cognitive-semantical properties of pictographic writing in the uzbek linguistic community 25

Kurakova Shoxida Dagar kizi
Когнитивно-семантические особенности пиктографической письменности в узбекском лингвистическом сообществе 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованных работ
List of published works 52

Avtoreferat “O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika” jurnali tahririyatida tahrirdan o‘tkazildi.



Adadi 100 nusxa. Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$
Bosma tabog‘i 3,4. «Times New Roman» garniturasi.
“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

QURAQOVA SHOXIDA DAGAR QIZI

O‘ZBEK LISONIY HAMJAMIYATIDA PIKTOGRAFIK YOZUVNING KOGNITIV-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2828 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti veb-sahifasining www.tsuull.uz hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xolmanova Zulxumor Turdiyevna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Abdushukurov Baxtiyor Bo‘ranovich** filologiya fanlari doktori, professor
	Sodiqov Qosimjon Pozilovich filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika unversiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 16-may soat 16^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (346 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 7-may kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

H.A.Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

S.Ashirboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

masalalari” mavzusida o‘tkaziladigan an’anaviy Xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari. – Toshkent, 2022.– B. 116-121.

11. Quraqova Sh. Piktografik yozuvning shakllanish tarixi va ijtimoiy qiymati // VII. ULUSLARARASI TÜRKLERİN DÜNYASI SOSYAL BİLİMLER SEMPOZYUMU. – Ankara, 2023. 02-04 Haziran / June. – S. 708-715. Prag-ÇEKYA.

12. Quraqova Sh. Formation and development of pictography / MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH: a collection scientific works of the International scientific conference. – Berlin, 2023. 11 June. Part 24. –P.340-347.

13. Quraqova Sh. Piktogrammalarning qo‘llanilish doirasi / 19-oktabrda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” bo‘yicha tashkil qilingan Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya. – Toshkent, 2023. – B. 178-182.

14. Quraqova Sh. Piktogramma va ramzlarning inson hayotidagi o‘rni // Жумабек Ташенев университети Қозоғистон халқи Ассамблеяси, Қозоғистон Республикаси ўзбек этномаданий бирлашмаларининг “Дўстлик” ҳамжамияти, Ўзбекистон давлат хореография академияси, Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети билан ҳамкорликда 2023 йил 18 ноябрь куни “Илм-фан, таълим ва санъат интеграцияси: истиқболли режалар” мавзусида Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Шымкент, 2023. – B. 419-423.

15. Quraqova Sh. Bugungi kunda piktogrammalarning o‘rni va ahamiyati // Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan o‘tkazilgan “O‘zbek filologiyasi: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Toshkent: Anorbooks, 2024. – B. 56-59.

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI
СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ
LIST OF PUBLISHED WORKS

I bo'lim (part I; I часть)

1. Quraqova Sh. Semiotika va piktografiya munosabati // "O'zbekiston milliy axborot agentligi" ilm-fan jurnal. – Toshkent, 2023. – №5. – B. 139-145. (OAK Rayosatining 2019-yil 28-martdagi 263/7.1 va 263/7.4 -son qarori).

2. Quraqova Sh. Semiotik maydondagi piktogramma va ramzlar // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Tashkent, 2023. May. (E) ISSN:2181-1784 – B. 531-536. Impact factor UIF-2023: 3(5).

3. Quraqova Sh. Reflection of semiotics in pictographic signs // Open Academia. Journal of Scholarly Research – Tashkent, 2023. June. Vol 1. Issue 3. – P. 32-35. Impact factor UIF, 2023:4.

4. Quraqova Sh. Maishiy obyektlarni bildiruvchi piktografik yozuvning kognitiv-semantik tahlili // O'zbekiston: til va madaniyat.– Toshkent, 2024. –№4. – B. 71-79. ISSN 2181-922X.

5. Quraqova Sh. Semiotika muloqot shakli sifatida // O'zbekiston milliy axborot agentligi. – Toshkent, 2024. –№5. – B. 131-135 (OAK Rayosatining 2019-yil 28-martdagi 263/7.1 va 263/7.4 -son qarori).

6. Quraqova Sh. "The Place and Significance of Pictograms Today // AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning jurnali. – Amerika, 2024. June. Vol. 02. Issue 05. – P. 459-462. Impact factor SJIF-2023: 10.23.

7. Quraqova Sh. Importance of Pictographic Symbols on Product Packaging // European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) jurnal. – Belgiya, 2024. May. Volume 4. Issue 05.– P. 381-383. Impact factor SJIF-2023: 10.48.

II bo'lim (part II; II часть)

8. Quraqova Sh. Piktografik yozuv tarixi va zamonaviy dunyoda piktogrammalar / Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan o'tkazilgan "Tilshunoslikning dolzarb masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022, Mart. – B. 205-209.

9. Quraqova Sh. Turizm sohasida piktografik yozuvlarning ahamiyati / Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti madaniyatlararo muloqot va turizm kafedrasi. N.A. Dobrolyubov nomidagi Nijniy Novgorod lingvistika universiteti tomonidan o'tkazilgan "Madaniyatlararo muloqot va turizm" mavzusidagi Xalqaro masofaviy-onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: Bookmany print, 2022. June 10. – B. 31-35.

10. Quraqova Sh. Piktografik yozuvning paydo bo'lishi va ramzlardan mixxatga o'tish / Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan o'tkazilgan "O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida inson omiliga yangicha yondashuv, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, pragmatika, sotsiolingvistika, etnolingvistika kabi antropotsentrik sohalardagi ilmiy izlanishlar til bilan bog'liq hodisalar mohiyatini aniqlashda keng qamrovli tahlilni talab etmoqda. Kishilik jamiyati tarixiy bosqichlaridagi muloqot shakllarining keyingi davrlardagi taraqqiyot xususiyatlari, hozirgi holati eng qadimiy kodlarning ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq ravishda takomillashib borishini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda yozuvning ijtimoiy ahamiyati, tarixiy turlari, hozirgi zamondagi ko'rinishlari tahlil qilinib, jamiyat taraqqiyotiga muvofiq ravishda qo'llanib kelayotgani, muhim kommunikativ vazifa bajarishi ko'rsatib berilgan. Qadimgi yozuv shakllarining zamon muhitidagi kommunikativ vazifasini tadqiq etish, lingvokognitiv omillarini ko'rsatish, umuminsoniy qadriyatlar ifodasidan milliy tafakkurga xoslanish jarayonlarini asoslash muhimdir.

Dunyo ilm-fanida amalga oshirilayotgan lingvistik tadqiqotlarda tildagi mavjud hodisalar mohiyatini ochib berishda qadimgi yozuv shakllarining, xususan, piktogrammalarning muhim o'rin tutishi asoslangan. Til sohibining ijtimoiy hayot tarzi, dunyoqarashi, ma'lum tushuncha atrofidagi voqelik, aksariyat holatda, muayyan belgining turli tillar kesimida bir xil talqin qilinishi nuqtayi nazaridan chog'ishtirma aspektda tahlil etilgan. Piktografik yozuvlarning umuminsoniy simvollardan xususiy belgilarga aylanishi, muayyan xalqning etnomadaniy xususiyatlarini aks ettirishga xoslanishi, ifoda konseptiga ko'ra bir qator semantik guruhlarga bo'linishi lingvokognitiv aspektdagi izlanishlarni talab qiladi.

Mamlakatimizning Uchinchi Renessans davriga qadam qo'yishi, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi, ijtimoiy vazifalari, funksional-stilistik imkoniyatlari shu vaqtga qadar e'tibordan chetda qolgan, umuminsoniy va milliy-ma'naviy qadriyatlarni mujassamlantirgan mavzularda tadqiqot olib borishni taqozo qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom hamda sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak"[1]. Universal belgilar bilan bir qatorda milliy-madaniy piktogrammalarni o'rganish asosida yosh avlod ongiga vatanparvarlik, ona tiliga, ma'naviy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini singdirish, bugungi globallashuv jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot talablariga javob bera oladigan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallagan, keng dunyoqarashga ega mutaxassis-kadrlarni tayyorlash, Yangi O'zbekiston asoslarini yaratuvchi har tomonlama bilimli, til ko'nikmalarini puxta egallagan yoshlarni tarbiyalash muhimdir. Piktogrammalarga doir jahon tilshunosligidagi yondashuvlarni tatbiq qilish, o'zbek tilshunosligidagi mental dunyoqarash, milliy qadriyatlar bilan bog'liq piktogrammalarni kognitiv-semantik jihatdan tahlil qilish, mohiyatini yoritish, lisoniy hamjamiyatdagi kommunikativ

[1]Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг "Ўзбекистон Республикасининг "Давлат тили хақидаги Қонун"и қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида"ги ПҚ-4479-сон қарори // uza.uz.

vazifasini ko‘rsatish, shu asosda piktografik yozuv savodxonligini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2019-yil 21-oktabrdagi o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2021-yil 19-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi hamda mazkur faoliyatga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida, xususan, rus, ingliz, turk olimlari tomonidan keyingi yillarda piktogramma, simvol, til belgilari tizimi va ramzlar tahliliga oid izlanishlar olib borilgan. Fransuz tilshunosligida Philippe Berger, ingliz tilshunosligida Otto Neurath, C.Berger, Y.Partida, Juntos, H.V.Berger, Abdullah Rayan and Hübner, Blackcoffee Design, D.Darnie, rus tilshunosligida A.Saxarov, I.Zabelin, O.Brushlinskaya, A.Lidov, K.D.Voloshuk, T.V.Proxorova[2] kabi olimlar piktogramma va yozuv taraqqiyoti, tafakkurni ifodalashdagi o‘rni, jamiyatdagi muloqot vazifasi haqidagi tadqiqotlarini amalga oshirdilar. Shuningdek, turkologiyada ham yozuv va piktogramma tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar amalga oshirilgan. Xususan, H.Bossert, I.Batmanov, K.Ashiraliyev, A.Amonjolov, U.Alkım, F.Kinal, T.Bryce, B.Demirish, B.Dinchol,

[2] Philippe Berger. Histoire pecriture dans l’antiquite and ed. – Paris, 1892; Otto Neurath, International Picture language. – London, 1936; Berger C. Wayfinding: Designing and Implementing Graphic Navigational Systems. – İsviçre: RotoVision Books, 2005; Partida Y., Juntos H., Berger B. Universal Symbols in Health Care Workbook Amerika: JRC Design, 2005; Abdullah Rayan and Hübner. Pictograms. Icons and Signs. Yyy. – Thames& Hudson, 2006; Blackcoffee Design, Icons, Symbols and Pictograms, Tyy. – Rockport Yayınları, 2006; Darnie D. Exhibition Design. – Londra: Laurence King Publishing Ltd, 2006; Сахаров А.И. Исследование о русском иконописании.– СПб., 1849; Лидов А.М. Икона. Мир святых образов в Византии и Древней Руси. – М.: НП АКЦ «Страдиз-Аудиокнига, Феория, 2014. – 406 с.; Забелин И.Е. Материалы для истории русской иконописи. – М., 1850; Брушлинская О. Живая икона искони и поныне // Наука и религия, 1999. – №1.– С.33; Волощук К.Д. Пиктографика в художественной и визуальной культуре. Дисс. ... канд. искусст. – Барнаул, 2010; Прохорова Т.В. Сибирская икона XVI-XIX вв.: становление и развитие иконографической традиции. Дисс. ...канд. искусст. наук. – М., 2012.

научные выводы по теоретико-практическим результатам зарубежного опыта, когнитивно-семантическому анализу, роли и значению пиктограмм в обществе, проблемам анализа и осознания пиктограмм, активно использующихся в узбекском языковом обществе, были использованы при подготовке сценариев передачи “Hamma uchun” телеканала “O‘zbekiston tarixi” (справка №06-31-839 от 10 июля 2024 года Национальной телерадиокомпании Узбекистана). В результате содержание передачи было обогащено за счет рекомендаций по пиктографической письменной грамотности.

Апробация результатов исследования. Результаты исследования обсуждены на 8 научно-практических конференциях, в том числе 6 международных и 2 республиканских.

Публикация результатов исследования. По теме диссертации опубликовано 15 научных работ, из них 7 статей в научных изданиях, рекомендованных Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан к публикации основных результатов докторских диссертаций, в том числе 3 статьи в республиканских и 4 статьи в зарубежных журналах.

Структура и объем диссертации. Диссертация состоит из введения, трех глав, вывода, списка использованной литературы, приложений. Общий объём составляет 147 страниц.

раскрыты структурно-семантические особенности пиктограмм в качестве явления письменной речи;

лингвокогнитивно раскрыты возможности выражения семантики пиктографического письма, эквивалентные слову, словосочетанию и предложению;

разработаны когнитивно-семантические модели пиктографического письма; определены универсальные в международном масштабе и характерные для узбекского национального мышления пиктограммы, основанные на ментальных, культурных, когнитивных признаках, связанных с языком, мышлением и сознанием.

Внедрение результатов исследования. На основе когнитивно-семантического исследования пиктографического письма в узбекском языковом сообществе:

научно-теоретические материалы по выявлению исторических корней пиктографического письма и фонографического письма их значимости в образовании, представленные в исследовании; определению уровня использования пиктограмм в социальных сферах, сохранению популярных пиктограмм до наших дней, обеспечивающих эффективное общение; эргономичности и трудностям, связанным с пиктограммами, используемыми в узбекском языковом обществе, а также выводы по систематическому исследованию лингвокультурных особенностей пиктограмм были использованы в практическом проекте №AM–F3-201908172 "Тема создания образовательного корпуса узбекского языка", реализованном в 2020-2023 годах в Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (справка №04/1-2522 от 19 сентября 2024 года Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои). В результате база данных образовательного корпуса была обогащена теоретическими материалами, касающимися пиктографических особенностей, их значимости как средств визуальной коммуникации;

научные материалы о роли и проблемах пиктограмм на социально-политической арене, факторах, способствовавших сохранению пиктограмм на протяжении веков, о том, что пиктограммы функционировали в мышлении языкового сообщества и были частью общения; исследовании пиктографической письменности и уточнении гипотез о происхождении письменности, лексическом, когнитивно-семантическом анализе пиктографической письменности в узбекском языкознании были использованы в практическом проекте PZ-2 020042022 "Создание лингводидактической электронной платформы тюркских языков", реализованном в 2021-2023 годах в Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (справка №04/1-2521 от 19 сентября 2024 года Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои). В результате пиктографические письменные материалы способствовали повышению уровня иллюстративности электронной платформы;

J.Jean, Selchuk Kurshad Koca, J.Bottero, M.Steve, Ebru Tash[3] kabi olimlar tadqiqotlarida yozuv masalasi, asosan, o'rxun-yenisey toshbitiklarining grafik, semantik xususiyatlari yoritilgan.

O'zbek tilshunosligida piktogrammalarga oid maxsus kuzatish olib borilmagan bo'lsa-da, ayrim izlanishlarda piktografik yozuvning xususiyatlari to'g'risida fikrlar mavjud. K.Yusupov, Q.Sodiqov, H.Dadaboyev, N.Mahmudov, Z.Do'simov, R.Botirov, R.Yo'ldoshev, A.Nurmonov, N.Chiniqulov, Z.Choriyev, Sh.Shaydullayev, T.Annayev kabi olimlar yozuv va uning turlari haqida o'z fikrlarini bildirishgan[4].

Piktografik yozuv, uning lingvokognitiv xususiyatlari, piktogrammalarga funksional-semantik jihatdan muqobil lisoniy birliklar va ularning lingvokognitiv xususiyatlari o'zbek tilshunosligida monografik tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tilning ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tilshunosligida piktografik yozuvning kommunikativ, emotsional-ekspressiv, akkumulyativ vazifasiga xos kognitiv-semantik xususiyatlarni tahlil etish, funksional-semantik jihatdan muqobil lisoniy birliklarning konseptual ma'nolarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

piktogrammalar tahlili asosida olamning lisoniy manzarasiga nisbatan kognitiv munosabatni aniqlash;

[3]Bossert H.Th. Hititlerde Yazı Malzemesi ve Yazı Aletleri. Belleten, XVI (61), 1952; Батманов И.А. Язык енисейских памятников древнетюркской письменности. – Фрунзе: АН Киргизстан, 1959. – 218 с.; Аширалиев К. Древнетюркские элементы в современных тюркских языках. На материале орхоно-енисейских памятников. Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Фрунзе, 1969. – 21 с.; Аманжолов А.С. Материалы и исследования по истории древнетюркской письменности. Автореф. дисс. … д-ра филол. наук. – Алма-ата, 1975. – 49 с.; Alkım U.B. "Yazının Başlangıcı" Harf Devrimi'nin 50, Yıl Sempozyumu. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 1981; Kinal, F. Eski Mezopotamya Tarihi. – Ankara, 1983; Kinal, F. Eski Anadolu Tarihi. – Ankara, 1987; Bryce T. Life And Society In The Hittite World. – Oxford, 2002; Demiriş B. Eskiçağ'da Yazı Araç Ve Gereçleri. – İstanbul, 2002; Dinçol B. Eskiçağ'da Doğu Akdeniz Havzası Ve Anadolu'da Diller Ve Yazılar. Boğazköy'den Karatepe'ye Hititbilim Ve Hitit Dünyasının Keşfi, 2002. – S. 20–37. Jean J. Yazı İnsanlığın Belleği. – İstanbul, 2002; Selçuk Kürşad Koca. Türk Kültüründe sembollerin Dili. Doktora Tezi, 2012; Bottero J. & Steve M.J. Evvel Zaman İçinde Mezopotamya. – İstanbul, 2013; Ebru Taş. Kentsel Alanlarda Yer Alan Piktogramlarin Bilgilendirme İşlevleri Ve Tasarim Açisindan Incelenmesi. Yüksek Lisans Tezi. – İstanbul, 2014.

[4] Юсупов К. Ўзбек адабий тилининг тараққиёти ва ёзув масаласи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1979; Маҳмудов Н.М. Тил ва ёзув. – Тошкент: Ўзбекистон, 1987; Содиқов Қ. Эски уйғур ёзуви. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989; шу муаллиф. XI–XV аср уйғур ёзувли туркий ёдгорликларнинг график-фонетик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри… дисс. – Тошкент, 1992. – 167 б.; шу муаллиф. Эски ўзбек ёзма адабий тили. – Тошкент: Akademnashr, 2020. – 592 б.; Дадабаев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI–XIV вв. – Тошкент: Фан, 1991. – 168 с.; он же. Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Ташкент: Фан, 1994. – 156 с.; Дўсимов З., Ботиров Р., Йўлдошев Р. Ёзувлар тарихидан. – Urganch, 2000; Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент, 2002; Чориев З.У., Шайдуллаев Ш.Б., Аннаев Т.Ж. Ўзбекистон ҳудудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007.

o‘zbek lisoniy hamjamiyatida faol qo‘llanadigan piktogrammalar, ularning funksional-semantik muqobillari statistikasi va struktur-semantik tahlilini amalga oshirish, qo‘llanish darajasini belgilash;

piktografik yozuvlar semantik imkoniyatlarini lisoniy-kognitiv jihatdan ochib berish;

piktografik yozuvning kognitiv-semantik modellarini ishlab chiqish; universal va milliy piktografiyalarni aniqlash, kommunikativ vazifalarini ko‘rsatish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek lisoniy hamjamiyatida faol qo‘llanayotgan maishiy mazmundagi, mahsulot yorliqlaridagi piktogrammalar va yo‘l belgilari tanlandi.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek lisoniy hamjamiyatidagi piktogrammalarni idrok etish, funksional-semantik jihatdan muqobil lisoniy birliklar semantikasining kognitiv belgilarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada eksperimental, leksikografik tahlil, analiz, sintez, statistik, modellashtirish, kognitiv-semantik, komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

piktogrammalarning funksional-semantik muqobillari asosida olam lisoniy manzarasining kognitiv-semantik xususiyatlari aniqlanib, piktografik yozuv savodxonligi masalasi o‘zbek tilshunosligida ilk bor ilmiy tezis sifatida asoslangan;

o‘zbek lisoniy hamjamiyatida faol qo‘llanadigan piktogrammalar hamda ularning funksional-semantik muqobillari statistikasi aniqlangan, piktogrammalarning yozma nutq ko‘rinishi sifatidagi struktur-semantik xususiyatlari ochib berilgan;

piktografik yozuv semantikasining so‘zga, birikmaga, gapga teng ifoda imkoniyatlari lingvokognitiv jihatdan ochib berilgan;

piktografik yozuvning kognitiv-semantik modellari ishlab chiqilgan; xalqaro doiradagi universal va o‘zbek milliy tafakkuriga xos piktogrammalar aniqlanib, til, tafakkur, ong, lison bilan bog‘liq mental, madaniy, kognitiv belgilari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek lisoniy hamjamiyatidagi piktogrammalar jamlanib, tizimlashtirilgan;

milliy-madaniy belgilarni aks ettiruvchi piktogrammalarning kognitiv-semantik xususiyatlari tahlil qilingan;

o‘zbek lisoniy hamjamiyatidagi piktogrammalarning izohli, semantik lug‘ati yaratilib, ishga ilova qilingan;

piktografiyalar asosida psixolingvistik tajriba o‘tkazilib, piktografik yozuv savodxonligi o‘rganilgan;

piktografik yozuv savodxonligini oshirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanish jarayonida mavzuga aloqador kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, lingvopragmatika, sotsiolingvistikaga oid ilmiy manbalarga asoslanilgani, piktografik yozuvlarni tahlil qilishda umuminsoniy qadriyatlar va milliy tafakkur, dunyoqarash va mentalitetdan kelib chiqilgani bilan belgilanadi.

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В лингвистических исследованиях, проводимых в мировой науке, обоснована значимая роль древних форм письма в раскрытии сущности функционирующих явлений в языке, в частности, пиктограмм. Социальный образ жизни носителя языка, мировоззрение, реальность, окружающая определенное понятие, анализируются в сравнительном аспекте, чаще всего с точки зрения однообразной интерпретации того или иного признака в разрезе разных языков. Перевоплощение пиктографических надписей из общечеловеческих символов в частные, свойственное отражению этнокультурных особенностей конкретного народа, деление на ряд семантических групп по концепту выражения требует исследований в лингвокогнитивном аспекте.

Целью исследования является анализ когнитивно-семантических особенностей, присущих коммуникативной, эмоционально-экспрессивной, аккумулятивной функциям пиктографического письма в узбекском языкознании, определение концептуальных значений функционально-семантически альтернативных языковых единиц.

Задачи исследования заключаются в следующем:

определить когнитивное отношение к языковой картине мира на основе анализа пиктограмм;

осуществить статистику и структурно-семантический анализ активно используемых в узбекском языковом сообществе пиктограмм, их функционально-семантические альтернативы и определить уровень использования;

раскрыть семантические возможности пиктографического письма с лингвокогнитивной точки зрения;

разработать когнитивно-семантические модели пиктографического письма; определить универсальные и национальные пиктограммы, выявить их коммуникативные функции.

Объектом исследования являются пиктограммы и дорожные знаки бытового содержания, ярлыки продуктов, активно употребляющиеся в узбекском языковом сообществе.

Предметом исследования является восприятие пиктограмм в узбекском языковом сообществе, функционально-семантический анализ когнитивных признаков семантики альтернативных языковых единиц.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

определены когнитивно-семантические особенности языковой картины мира на основе функционально-семантических альтернатив пиктограмм, впервые в узбекском языкознании обоснован вопрос о пиктографической письменной грамотности в качестве научного тезиса;

определена статистика активно используемых в узбекском языковом сообществе пиктограмм и их функционально-семантических альтернатив,

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/Fil2828.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, английском, русском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Холманова Зулхумор Турдиевна** доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Абдушукуров Бахтиёр Буронович** доктор филологических наук, профессор
	Содиков Косимжон Позилович доктор филологических наук, профессор
Ведущая организация:	**Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами**

Защита диссертации состоится 16 мая 2025 года в 16^{00} часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (Адрес: 100066, город Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Хожиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@ www.tsuull.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (Адрес: 100066, город Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Хожиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@ www.tsuull.uz).

Автореферат диссертации разослан 7 мая 2025 года.

(протокол реестра рассылки № _____ от _____ 2025 года)

Х.А.Дадабоев
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

К.У.Пардаев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

С.Аширбоев
Председатель научного семинара Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati piktografik yozuv nazariyasi, o'ziga xos belgilari, yozuv va kommunikativ vosita sifatidagi vazifalari, funksional-semantik muqobillari, ta'sir darajasi, tizimli ravishda namoyon bo'lishi haqida ma'lumotlar berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati to'plangan materiallardan kelgusida o'zbek lisoniy hamjamiyatidagi piktogrammalarni lingvomadaniy, kognitiv-semantik jihatdan tadqiq etish usullarini belgilashda, kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, lingvomadaniyatshunoslik bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalari yaratishda ko'rinadi. To'plangan materiallar va tadqiqot natijalari antropotsentrik tilshunoslik yo'nalishlarini o'rganishda, nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek lisoniy hamjamiyatida piktografik yozuvni kognitiv-semantik jihatdan tadqiq etish asosida:

piktografik yozuv va fonografik yozuvning tarixiy ildizlari, ta'limdagi ahamiyatini aniqlashga oid ilmiy-nazariy materiallardan; piktogrammalarning ijtimoiy sohalarda qo'llanish darajasini aniqlash, ommalashgan piktogrammalarning bugungi kunga qadar yashab kelishi, samarali muloqotni ta'minlashi; o'zbek lisoniy jamiyatida qo'llanayotgan belgilar bilan bog'liq qulaylik va muammolar; piktogrammalarning lingvomadaniy xususiyatlarini tizimli ravishda tadqiq etish haqidagi ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020–2023-yillarda bajarilgan AM-Ф3-201908172 raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 19-sentabrdagi 04/1-2522-son ma'lumotnomasi). Natijada, ta'limiy korpusning ma'lumotlar bazasi piktogramma xususiyatlari, vizual kommunikatsiya sifatidagi ahamiyatiga oid nazariy materiallar bilan boyitilgan;

piktogrammalarning asrlar davomida saqlanib qolish omillari, belgilarning lisoniy hamjamiyat tafakkurida yashab kelishi, muloqotning bir qismi bo'lib kelgani; piktografik yozuvning o'rganilishi hamda yozuvning paydo bo'lishi haqidagi farazlarga munosabat bildirish, o'zbek tilshunosligida piktografik yozuvning leksik, kognitiv-semantik tahliliga doir ilmiy materiallardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan ПЗ-2020042022 raqamli "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 19-sentabrdagi 04/1-2521-son ma'lumotnomasi). Natijada, piktografik yozuv materiallari elektron platformaning illyustrativlik darajasini oshirgan;

o'zbek lisoniy hamjamiyatida faol qo'llanadigan piktogrammalar hamda ularning funksional-semantik muqobillari statistikasini aniqlash, piktogrammalarning yozma nutq ko'rinishi sifatidagi struktur-semantik belgilarini ochib berish va milliy-madaniy belgilarni aks ettiruvchi piktogrammalarning kognitiv-semantik xususiyatlari, piktogrammalarning ijtimoiy-siyosiy maydondagi o'rni, piktografik savodxonlik muammolariga oid ilmiy xulosalardan Alisher

Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan ПЗ-2 020042022 raqamli "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 19-sentabrdagi 04/1-2521-son ma'lumotnomasi). Natijada, elektron platforma piktografik yozuv statistikasi va milliy-madaniy belgilarni aks ettiruvchi piktogrammalarning kognitiv-semantik xususiyatlari haqidagi nazariy materiallar bilan boyitilgan;

kognitiv-semantik tahlil, piktogrammalarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, piktogrammalarni tahlil qilishda va o'zbek lisoniy jamiyatida faol qo'llanayotgan belgilarning tushunilishidagi muammolar, xorij tajribasining nazariy-amaliy natijalariga oid ilmiy xulosalardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Hamma uchun" ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zMTRK, "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 10-iyuldagi 06-31-839-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuv mazmuni piktografik yozuv savodxonligiga oid tavsiyalar orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 6 ta xalqaro, 2 ta respublika konferensiyasida ma'ruza shaklida bayon etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika hamda 4 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovadan tashkil topgan bo'lib, jami 147 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqotning joriylanishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning I bobi **"Piktografik yozuvning shakllanish tarixi va ijtimoiy vazifasi"** deb nomlangan. Bobning mazmuni uch paragrafda yoritilgan.

1.1-§. *Piktografik yozuv tavsifi va taraqqiyoti.* Paragrafning birinchi bandida *Piktogrammalar shakllanishining kognitiv-semantik omillari* keltirilgan. Yozuvning shakllanish jarayoni inson fikrini buyumlar orqali ifodalashga harakat qilishdan boshlangan. Bunday munosabat Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida ham aks etgan[5].

[5] Alisher Navoiy. Xamsa. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nhriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – B. 554.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ

КУРАКОВА ШОХИДА ДАГАР КИЗИ

КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПИКТОГРАФИЧЕСКОГО ПИСЬМА В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОВОМ СООБЩЕСТВЕ

10.00.01 – Узбекский язык

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2025

Pictographic symbols differ in semantic, cognitive properties, and design. These symbols provide important instructions on the safety, use, and storage of the product.

9. Pictographic writing is an active, visual communicative sign of the Uzbek language community. In addition to conveying various information, it becomes a symbolic sign of a certain national culture. Pictograms are distinguished by their universality, as well as their national flavor.

Understanding and perceiving pictograms puts the issue of "pictographic writing literacy" on the agenda. Correct interpretation of pictograms ensures the correct selection of space and objects, the correct use of products, and compliance with the necessary guidelines for human health and life.

"Buyumli yozuv" nomi bilan yuritiladigan bunday axborot vositasi-monemonik (eslatuvchi) belgilar ana shu izlanishlarning ilk ko'rinishlari edi"[6].

Piktografiya (lotincha *pictus* – "chizilgan", tasvirlangan va *grafiya* – "yozaman") – yozuvning rivojlanish bosqichlaridan, fonetik yozuvdan oldingi turi: muayyan axborot mazmunini biron-bir rasm yoki qat'iy ketma-ket kelgan rasmlarda aks ettirish usuli[7]. Piktografik yozuv – fikrlarni chizmalar orqali yetkazish shakli. Piktografik yozuv ko'rinishlari ikki xil: 1) ideogramma; 2) logogramma. Bir g'oyani yoki ma'noni ifodalagan piktogramma *ideogramma* deyiladi, tushunchani ifodalagan belgi *logogramma*dir[8]. Tadqiqotlarga tayanib, piktografik yozuvning quyidagi asosiy xususiyatlarini umumlashtirdik:

1. Piktografik yozuv – ma'lumotni grafik tasvirlash usullari va simvolik belgilar orqali vizual tarzda ifodalaydigan illyustrativ tizimdir.

2. Piktografik yozuv oddiy ifoda usuliga egaligi, kommunikativ jarayonda ortiqcha tafsilotlarning ifoda etilmasligi bilan xarakterlanadi. Bu yozuv turida lingvistik me'yorlarga asoslanilmaydi. Piktogrammalar qisqa va oddiy rasmli belgilar bo'lib, ma'noni anglashda eng sodda va oson usul sifatida umumiy tarzdagi idrok etishni osonlashtiradi.

3. Piktografik yozuvning eng muhim xususiyati uning universalligidir. Qaysi til vakili bo'lishidan qat'i nazar, odamlar piktogrammalar orqali bir-birini yaxshi tushunadi.

4. Piktogrammalar tasvir obyektining modellashtirilgani, tez va oson tushunilishi, ko'rish hamda idrok etish bilan aloqadorligi, aniqligi bilan ajralib turadi.

5. Fonetik yozuvda narsa-hodisa va g'oyalar tovush orqali ifodalansa, piktografik yozuvda ramziy tarzda aks etadi. Piktogrammalar o'zgarishsiz ma'lumotlarni ifodalashda tasavvur etishni osonlashtiradi.

Paragrafning *Piktogramma kommunikativ vazifasining qayta tiklanishi* deb nomlangan bandida yozuvning keyingi taraqqiyot bosqichlarida ham faollashuvi va uning omillari ko'rib chiqilgan. Hozirgi vaqtda eng muhim piktografik tizimlar Xitoy, Yaponiya va Koreyada qo'llanadi. Qolgan mamlakatlarda yozuvning fonetik ko'rinishidan foydalaniladi.

O'zbek lisoniy hamjamiyatida piktogrammalar ijtimoiy hayotning barcha sohalari, jumladan, ishlab chiqarishda, transport tizimida, meditsina xizmatida, ta'lim jarayonida faol qo'llanib kelmoqda. Xalqaro belgilar tizimi bilan bir qatorda milliy piktogrammalardan ham foydalanilmoqda.

1.2-§. *Piktografiyaga oid tadqiqotlar tavsifi.* Paragrafda piktografik yozuvning tarixiy va amaliy aspektlarini o'rganish, ulardan foydalanish darajasi, kommunikatsiyadagi o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan. Piktografik yozuvlarga oid tadqiqotlar maqsadiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratildi:

[6] Маҳмудов Н. Тил ва ёзув. – Тошкент: Ўзбекистон, 1987. – Б. 5.
[7] O'zME. I jild. – Toshkent, 2000.
[8] Andrew Robinson. The Story of Writing. Thames & Hudson Ltd. – London, 1995. Chapter 2 Sound, Symbol and Script 36.

– *piktografik yozuvlarni tushunish maqsadida olib borilgan izlanishlar* (Thomas Young, Jan-Fransua Shampolyon, Henry Creswicke Rawlinson, Yuri Knorozov)[9];

– *amaliy tajribalar va test asosidagi izlanishlar* (David S. Whitley, Kevin L. Callahan, Marilyn A. DeLong)[10];

– *muloqot vositalarini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilgan tadqiqotlar* (Don Norman, James Paul Gee, E.Nisbett)[11];

– *piktogrammalar ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida talqin qilingan izlanishlar* (Roland Barthes, Stuart Hall)[12].

O'zbek tilshunosligida yozuv va uning tarixiy taraqqiyoti, dunyo miqyosida yozuvning yuzaga kelishi, turkiy tillar yozuvi, xususan, o'zbek yozuvi tarixi, peshlavhalardagi nolisoniy vositalar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, N.Chiniqulov tadqiqotining I bobi ikkinchi paragrafida peshlavhalarda nolingvistik vositalarning o'rni borasida fikr yuritilgan. "Peshlavhalarda kommunikativ vazifa bajaruvchi asosiy vosita til birliklari bo'lsa-da, ularda harfiy shakllar, rang, bezak, dizayn kabi nolingvistik vositalar ham muhim ahamiyat kasb etadi"[13]. Tushunchaning simvolik raqamlar (03-tez tibbiy yordam), emblemalar, davlat gerbi, ramzlar bilan ifodalanishi ta'kidlangan. Mudofaa vazirligiga qarashli artilleriya, tank, umumqo'shin, aviatsiya, desant kabi harbiy qismlarning alohida emblema shakllariga egaligi qayd etilgan[14]. Tilshunoslik nazariyasiga oid darslik, qo'llanmalarda yozuv tarixi, ilk namunalari, xususan, piktografik yozuv haqida atroflicha ma'lumotlar qayd etilgan[15]. Q.Sodiqov yozuv tizimi va taraqqiyoti, yozuv bilan shug'ullanadigan sohalar, yozuvning shakllanish bosqichlari haqida ma'lumot bergan[16]. Yozuvni tilshunoslik sohasi sifatida qayd etgan: "Yozuv birinchi galda, tilshunoslik obyektidir. U kishi nutqini belgilar yordamida aks ettiradi"[17].

Tadqiqotlarda piktografik yozuv ko'cha tili, shahar tili, yozuv tarixi, taraqqiyoti, tilning paralingvistik vositalari mavzusi doirasida tahlil qilingan.

---

[9] Young Thomas. An Essay on the Application of Analytical Principles to the Translation of the Egyptian Hieroglyphs. Philosophical Transactions of the Royal Society of London, 1819. Vol. 109. – P. 385–397; Champollion Jean-François. Précis du système hiéroglyphique des anciens Égyptiens; ou, recherches sur les éléments premiers de cette écriture sacrée, sur leurs diverses combinaisons, et sur les rapports de ce système avec les autres méthodes graphiques égyptiennes. – Paris: Firmin Didot, 1824. – 264 pp; Rawlinson, Henry Creswicke. The Cuneiform Inscriptions of Western Asia: Transliterated and Translated, and Accompanied by Photographs of the Monuments. – London: E. Trübner & Co., 1861–1865; Кнорозов Ю.В. Древная письменность мая "maya" [Ancient Maya Script]. Советская этнография, 1952. – № 1. – P. 77–85.

[10] David S. Whitley. The Art of the Shaman: A Study of the Petroglyphs and Pictographs of the Great Basin, 1990; Kevin L. Callahan. Rock Art and Cultures: Historical Perspectives through Petroglyphs and Pictographs.Marilyn A. DeLong. Rock Art and Religious Practices.

[11] Don Norman. The Design of Everyday Things, 1988; James Paul Gee. Literacy in the New Media Age, 2000; The Geography of Thought: How Asians and Westerners Think Differently...and Why, 2003.

[12] Roland Barthes. Mythologies, 1957; Stuart Hall Encoding / Decoding, 1973.

[13] Чиникулов Н. Пешлавҳаларнинг лисоний хусусияти. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – Б. 11.

[14] Чиникулов Н. Кўрсатилган автореф. – Б. 11.

[15] Холманова З. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, 2007; shu muallif. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2020; Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2010; Yoldoshev I. va b. Mutaxassislikka kirish. – Toshkent, 2020.

[16] Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. – Тошкент: Akademnashr, 2020. – 592 б.

[17] Содиқов Қ. Кўрсатилган манба. – Тошкент: Akademnashr, 2020. – Б. 241.

from them, and the models and systems based on perception. This helps in better understanding and improving the concepts related to the signs and symbols in pictographic writing.

Pictograms are categorized as simple or complex based on their structure. Pictograms have functional-semantic counterparts, which correspond to words, phrases, or sentences.

4. In the Uzbek language community, pictograms perform the function of a visual communication tool. In place pictograms, the activity of the linguistic unit ↔ pictogram model in Russian and English was observed. In this model, lexical means and pictograms perform almost the same communicative function. Functional-semantic alternatives and pictograms, in addition to providing information, serve to ensure universal communication. Such an approach has created a communicative tautology. In this case, the Turkic lexeme ↔ pictogram model is appropriate, in which the pictogram serves to popularize the information reflected through the functional-semantic alternative and to universally express it in visual form.

5. In the Uzbek language community, road signs operate according to the internationally accepted universal system. The property of the pictogram as a sign is preserved in road signs. Road signs practically do not involve functional-semantic means. The process of visualizing an image, illuminating meaning, contextual (situation-based) understanding, variability, and understanding through metaphors and idioms are cognitive-semantic properties of road signs.

6. In the Uzbek language community, pictographic writing denoting institutions and organizations expresses the activities and types of services of institutions or organizations, and performs the function of conveying information in a convenient way for employees or other individuals, including representatives of different nationalities. Pictograms related to institutions and organizations are characterized by their presence in the internal and external environment.

7. Pictographic symbols on food packaging are in line with the fact that humanity is increasingly connected to the world and is adopting a mobile lifestyle with the help of modern advanced technologies. Food packaging design mainly performs the function of communication, convenience in transportation and protection. The communication function includes information about the composition of the product, information necessary for use and warning, maintaining corporate identity and strengthening the brand image. Packaging is one of the most direct and effective forms of advertising influence between the manufacturer and the consumer. Packaging performs a communicative and emotionally expressive function.

8. Pictographic symbols on cosmetic and hygiene product packaging help to quickly and clearly convey important information about the product. Pictographic symbols include denotative meaning, connotative meaning, and cognitive process. Cognitive process is represented by visual perception, memory, learning, and recall.

respondents correctly identified the meaning of 18 pictograms. This result indicates that there are issues with understanding pictographic writing.

The main solution to this problem is to expand the range of information related to pictograms. Creating guides to pictographic writing and compiling a dictionary of actively used pictograms will help to easily understand their content.

International pictograms are widely used in the Uzbek linguistic community. In pictograms, semantic relationships, similar to language units, can be observed. In complex pictograms, hypo-hyperonymic, partonomic, polysemy, shape similarity, and meaning similarity relationships are evident.

Identifying the cognitive-semantic counterparts of pictograms and attempting to explain them enhances perception and cognitive abilities. For this reason, pictograms can be used as logical tasks in the educational process.

During the research, it was found that the level of understanding of pictograms varies, pictograms in the form of models are easier to perceive, while interpreting pictograms with specific semantic content is more complex.

CONCLUSION

